

HAYVONLARGA SHAVQATSIZ MUNOSABATDA BO'LISH JINOYATLARI TASNIFI VA JINOIY JAVOBGARLIGI

Berdiboyev S

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti talabasi

Annotatsiya: *O'zbekistonda hozirgi kunda ayrim "tarbiyali" fuqarolarning hayvonlarga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'lishi va uni "Mana men qildim" deb maqtanish maqsadida videoga olib ijtimoiy tarmoqda keng tarqalayotgani, bundan tashqari "Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonlarni qasddan qonunga xilof ravishda ovlash holatlari ucharyotganligi juda achinarli holat. Ushbu maqolada, Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (JK 202-modda) va hayvonlarga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'lish (JK 2021-modda) jinoyatini tushunchasi unga belgilanadigan jinoiy javobgarlikka alohida ta'rif berib o'tilgan*

Kalit so'z: *Atrof-muhit, hayvonot dunyosi, ov va ovchilik, qiynash, shavqatsiz munosabatda bo'lish, jinoyat kodeksi, jinoiy javobgarlik, jinoyatning oldini olish*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" deb fuqarolarga majburiyat yuklatilgan. Konstitutsiyamizning 55-moddasida esa "Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida" ekanligi belgilangan.

Amaldagi Jinoyat kodeksining 3-bo'limi "Ekologiya sohasidagi jinoyatlar" deb nomlanadi. Jinoyat kodeksining 202-moddasida Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish va 2021-moddasida hayvonlarga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'lish uchun javobgarlik ko'rsatilgan. Ushbu ekologiya sohasidagi jinoyatlar blanket dispozitsiyalardir. Ya'ni, jinoyat qonuni hayvonlarni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlar tushunchasini va belgilarini dispozitsiyasining o'zida ochib bermasdan ushbu sohada qabul qilingan qonunlar yoki normativ hujjatlarga murojaat etiladi.

Aynan shu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni qo'llashda quyidagi qonunlar asosiy manba vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Qimmatbaho va yo'qolib borayotgan o'simliklar va hayvonlar turlarini muhofaza qilishni kuchaytirish va ulardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi 937-XII sonli qarori; 2016-yil 19-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonun; 2016-yil 21-sentabrdagi "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (Yangi tahrirda); 2004-yil 3-dekabrda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996 yil 20 dekabrda "Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 36-son qarori

O'zbekiston Respublikasi JK 202-moddasi hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish deganda, ov qilish yoki baliq tutish qoidalarini buzish yoki kamyob va yo'qolib borayotgan hayvon turlarini tutish, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni yig'ish yoki tayyorlashnin belgilangan tartibini buzish, shu bilan birga muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish tushuniladi. Ov qilish yoki baliq tutish qoidalarini buzish deganda, ovni tegishli ruxsatnomasiz yohud yovvoyi qushlar yoki baliqlarni ruxsatnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiq ovlash, shuningdek, ovni taqiqlangan vaqtda yoki ruxsat berilmagan joylarda yoxud ruxsat etilmagan qurol, vosita va usullar bilan amalga oshirish tushunilishi lozim. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi hayvonot dunyosidan foydalanish tartibini buzish deganda, ularda zarur ruxsatsiz qurilish ishlarini olib borish; o'simliklarni to'plash, parrandalar va hayvonlarni litsenziyasiz tutish va otish va hokazolar tushuniladi

“Qizil kitob”ga kiritilgan o'simliklar va jonivorlarni tabiatdan har qanday ko'rinishda tortib ajratib olishga, alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi taqdimnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi beradigan ruxsatnomalar asosida yo'l qo'yiladi. Ovlanadigan hayvonlarni (shu jumladan zaharli jonivorlar va baliqlarni) ovlash hamda ularning mahsulotlarini to'plash, yovvoyi holda o'suvchi dorivor, ozuqa va manzarali o'simliklarni tayyorlash O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining xulosalari asosida O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi beradigan ruxsatnomalar bo'yicha amalga oshiriladi

Demak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2021-moddasi “Hayvonlarga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo'lish” jinoyatida hayvonlarni saqlash sohasini tartibga soluvchi munosabatlar va ijtimoiy axloq normalari obyektini hisoblanadi, predmeti esa uy va yovvoyi hayvonlaridir. Shavqatsiz munosabatda bo'lish deganda, hech qanday sabablarsiz ya'ni mudofaa holatida bo'lmaganda g'arazli yoki boshqa past niyatlarda, voyaga yetmaganlar oldida hayvonlarni sadist usulda qiynash yoki azob berish, buning natijasida esa hayvonning o'limiga yoki mayib bo'lishi tushuniladi. JK 2021-moddasi jinoyati harakat yoki harakatsizlik bilan amalga oshiriladi. Harakat orqali sodir etilganda, sadistik usul ya'ni hayvonlarni jarohatlash, qiynoqqa solish, cho'ktirish yoki tiriklayin yoqib yuborish, bundan tashqari, uning ustida og'riqli tajriba o'tkazish, noqonuniy janglarda foydalanish tushunish lozim. Harakatsizlikda sodir etilishida esa, ularni suvdan yoki ovqatdan mahrum qilish, issiqda yoki sovuqda qoldirish tushuniladi.

Amaldagi Jinoyat kodeksidagi 202-2021-moddalarining subyekti 16-yoshga to'lgan aqli raso shaxs hisoblanadi. 202-moddasida subyekt tabiatni muhofaza qiluvchi organlarning hodimlari va mansabdor shaxslari javobgarlikka tortiladi. Agar mansabdor shaxs brokonyerlar bilan jinoiy bitim tuzib, o'zining qabih ishlarini bajarishga ko'maklashsa, u tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzganligi va tegishli mansab jinoyati uchun javobgarlikka tortiladilar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan 202-2021 moddalari uchun javobgarlik jinoiy oqibat kelib chiqqanidan so'ng tugallangan hisoblanadi. 202-moddada tugallangan deb topish uchun ancha miqdorda zarar yetkazilishida sabab bo'lganida kelib

chiqadi. 2021-moddasi uchun javobgarlik esa, hayvonning o'limiga sabab bo'lsa, hamda ma'muriy javobgarlikka tortilganidan so'ng ushbu turdagi jinoyatni qayta sodir etganida jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurash olib borishda oldini olish chora tadbirlarining to'g'ri tashkil qilish va fuqarolarning ekologik-huquqiy ongini va madaniyatini rivojlantirish masalasi ahamiyatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. URL: <https://constitution.uz/oz/clause/index#section15>
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [2021 yil 1 aprelgacha bo'lgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar bilan] – T.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996 yil 20 dekabrda "Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 36-son qarori URL: <https://lex.uz/uz/docs/-1442456>
4. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni URL: <https://lex.uz/docs/-107115>
5. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 21-sentabrda "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" (Yangi tahrirda) qonuni URL: <https://lex.uz/uz/docs/-3030362>
6. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining "Qimmatbaho va yo'qolib borayotgan o'simliklar va hayvonlar turlarini muhofaza qilishni kuchaytirish va ulardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi 937-XII sonli qarori URL: <https://lex.uz/ru/docs/-249992>
7. Рустамбаев М.Х Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шарҳлар. Махсус қисм/М.Рустамбаев. – Тошкент: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021y
8. Утемуратова Ш. ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ЖИНОЯТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА БУ ТУРДАГИ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА. – 2014. – Т. 23. – №. 2. – С. 104-107. URL: <https://karsu.uz/wp-content/uploads/2019/04/%D0%B2%D0%B5%D1%81%D1%82%D0%BD%D0%B8%D0%BA-2014-2.pdf#page=102>
9. Криминалистика ва экспертиза. Дарслик ю.ф.н. проф. в.б. Д.Базарова, ю.ф.д. доц. И.Р.Астанов – Тошкент: ТДЮУ, 2020. URL: <https://proacademy.uz/postfiles/books/wb/jh/index.html>